

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY VA O'RTA MAXSUS TA'LIM VAZIRLIGI  
BUXORO MUHANDISLIK-TEKNOLOGIYA INSTITUTI

Ro'yxatga olindi:  
№ 0406  
2019 y. "28" 08



TASDIQLAYMAN  
o'quv ishlari bo'yicha prorektor  
dottsent Sh.M. Xodiyev  
28 08 2019 yil

**FIZIKA**

**FANINING ISHCHI O'QUV DASTURI**

Bilim sohasi: 300000 – Ishlab chiqarish-texnik soha  
Ta'lim sohasi: 310 000 – Muxandislik ishi  
Ta'lim yo'nalishi: 5310600-Metrologiya, standartlashtirish va mahsulot sifat menejmenti  
(tarmoqlar bo'yicha)

Umumiy yuklama hajmi	Talabanning o'quv yuklamasi, soat						Semestr lar. soat		
	Auditoriya mashg'ulotlari						Mustaqil ish	1	2
	Jami	Ma'ruza	Amaliy mashg'ulot	Laboratoriya ishi	Semenar	Kurs ishi loyuhasi ()			
90	72	36	18	18	-	-	18	4	
90	72	36	18	18	-	-	18		4
Jami : 180	144	72	36	36	-	-	36		

Fanning ishchi o'quv dasturi O'zbekiston Respublikasi Oliy va O'rta maxsus ta'lim vazirligida 2018 yil 25 avgustdagi 144 - sonli buyruq bilan (buyruqning № B.I-5320 - ilovasi) tasdiqlangan "Fizika" fani dasturi asosida tuzilgan.

**Tuzuvchilar:**

Komilov O.S.

Majidov J.O.

Muxamadova A.B.

BuxMTI, "Fizika" kafedras i dosenti

BuxMTI, "Fizika" kafedras i assistenti

BuxMTI, "Fizika" kafedras i assistenti

**Taqrizchilar:**

Astanov S.X

Saidov Q.S.

BuxMTI, "Fizika" kafedras i professori,  
fizika – matematika fanlari doktori.

BuxDU "Fizika" kafedras i dosenti.

"Fizika" kafedras i mudiri:  
2019 yil " \_\_\_\_ " \_\_\_\_\_

"Kimyoviy va oziq-ovqat"  
fakulteti dekani :  
2019 yil " \_\_\_\_ " \_\_\_\_\_



f-m. f.d. M.Z Sharipov

dots.R. T.Adizov

## **Faninig maqsadi va vazifalari**

“Fizika” kursini o’kitishning asosiy maqsadi talabalarda tabiatdagi hodisa va jarayonlarga ilmiy nuqtai nazaridan qarash madaniyatini shakllantirish, shuningdek, nazariy va eksperimental materiallar asosida fizik qonunyalarning ob’ektiv ekanligini, o’zlashtirish imkoniyatining mavjudligini isbot etishdir. “Fizika” fanining asosiy vazifasi - bu bir tomondan tabiat va texnikadagi *fizik hodisalar mohiyatini fizika fanidagi fundamental tushunchalar orqali tushuntirish bo’lsa*, ikkinchi tomondan nazariy bilimlarni talabalar kelgusida oladigan mutaxassisliklari bo’yicha yuzaga keladigan muammolarning, jumladan texnologik sikllarda modda va issiqlik balansini hisoblash, materiallarning issiqlik, elektr o’tkazuvchanligi, elastiklik modullarini aniqlash, kimyoviy reaksiyalar kinetikasini hisoblash kabi masalalarni yechish uchun ularning fizik modelini yaratish yo’lidagi uquvlarni shakllantirishdir.

### **1.1. TALABALARNING BILIMI VA KO’NIKMALARIGA TALABLAR**

Fizika kursini o’zlashtirgan talaba quyidagi bilimlarga ega bo’ladi.

1. Voqelik to’g’risida materialistic dunyoqarash shakllanadi.
2. Mexanik elektromagnit va yadro kuchlari to’g’risidagi tushunchalar shakllanadi.
3. Issiqlik jarayonlarini molekulyar –kinetik nazariya asosida tushuntira oladi.
4. Murakkab bo’lmagan elektr zanjirlarini hisoblash usullarini egallaydi.
5. Turli optik effektlarni elektromagnit to’lqin nazariyasi asosida tushuntira oladi.
6. Moddalarning tuzilishi va ularning fizik- kimyoviy xossalarini zamonaviy atomistic va kvant nazariyasi asosida tushuntira oladi.

Fizika kursini o’rganishda talabalar tomonidan olinadigan asosiy bilimlar.

1. Qattiq jism mexanik harakatining qonunlari.
2. Molekulyar-fizika termodinamika qonunlari.
3. Elektromagnetizm qonunlari.
4. Optika, atom va kvant fizikasi qonunlari.
5. Qattiq jism fizikasi qonunlari.

Fizika kursini o’zlashtirish asosida olinadigan ko’nikmalar

1. Qattiq jismlarning mexanik xossalarini (zichligi, elastikligi) aniqlashda fizik usullarini qo’llay oladi.
2. Suyuqliklarning ichki ishqalanish koeffitsiyentini Stoks usulida aniqlay oladi.
3. O’tkazgichning qarshiligi va elektr sig’imini Uyutson ko’prigi yordamida aniqlay oladi.

4. Suyuqliklarning yorug'lik yutish koeffitsiyentini va eritmalarining konsentrasiyasini aniqlashda optik usullarini qo'llay biladi.
5. Shaffof jismlarning sindirish ko'rsatgichini mikroskop yordamida aniqlay oladi.
6. Yorug'likning to'lqin uzunligini difraksion panjara yordamida aniqlay oladi.

Fizika fanini o'zlashtirgan talabalar quyidagi talablarga javob berishlari lozim.

1. Kelgusida oladigan mutaxassisliklari bo'yicha yuzaga keladigan masalalarda voqeaning fizik mohiyatini ajrata bilishlari.
2. Hozirgi zamon fizika tajriba asboblari (mikroskop, spektrograf kabilar) bilan yaqindan tanish bo'lib turli fizik tajribalarni o'tkazishda yetarli ko'nikmaga ega bo'lishlari
3. Fizik qonunlarning qo'llanilish jegasini ajrata bilishlari va bunda fizika fanining turli qismlarga nazariy yondashishning umumiyligini bilishlari kerak.

## **1.2. O'QUV REJADAGI BOSHQA FANLAR BILAN MANTIQUIY BOG'LIQLIGI**

Fizika fani boshqa barcha tabiiy fanlar uchun poydevor bo'lib o'z navbatida fizika fani bilan elektrotexnika, nazariy mexanika, elektr kimyo va fizik kimyo kabi fanlar jambarjas bog'liqdir.

Shuni alohida takidlash lozimki umumiy fizika kursini o'rganishda oily matematika fani muhim ro'l o'ynaydi. Oliy matematika aparati differensial va integral hisob bo'limlari bilan tanishmay fizikaviy kattaliklarni tushuntirish va qonunlarni keltirib chiqarish mumkin emas.

## **1.3. O'QITISHDAGI PEDAGOGIK VA AXBOROT KOMMUNIKATSION TEXNOLOGIYALAR**

Umumiy fizika kursini o'rganishda mavjud adabiyotlardan, elektron darslik, ayniqsa laboratoriya va amaliy mashg'ulotlarni o'tishlarda kompyuter texnologiyasi qo'llaniladi, virtual va fizik laboratoriya stendlardan hamda test savollari to'plamidan foydalanish tavsiya etiladi.

## 2.Asosiy nazariy qism

T/ r	Mavzu nomi	O'qitish shakllari bo'yicha ajratilgan soat						
		Umumiy yuklama	Auditoriya mashg'ulotlari (soatda)					
			Jami	Ma'ruza	Amalyot mashg'uloti	Laboratoriya ishi	Kurs ishi (Loyihasi)	Mustaqil ta'lim
1.	Fizika faniga kirish.	6	4	2				1
2	Fizika fanining predmeti va uslublari. Kinematikaning elementlari va fizik asoslari.	6	4	2	2			
3	Moddiy nuqta dinamikasi.	10	6	2	2			2
4	Tabiatdagi kuchlar va ularning xususiyatlari.	4	2	2				1
5	Mexanikada saqlanish qonunlari.	6	4	2				1
6	Saqlanish qonunlarini absalyut elastik va noelastik to'qnashuvlarga tadbiiq etish.	6	2	2				1
7	Qattiq jism mexanikasi.	8	6	2	2	4		2
8	Mexanik tebranishlar.	4	2	2	2	4		1
9	Mexanik to'lqinlar.	4	2	2	2			1
10	Yaxlit muxit xanikasining elementlari.	6	4	2	2	4		1
11	Makroskopik holatlar	8	6	2				1
12	Statistik taqsimotlar	10	6	2		4		2
13	Termodinamika asoslari.	6	4	2				1

14	Real gazlar ko'chish hodisalari	8	6	2	2	2		1
15	Kulon qonuni. Elektr maydon kuchlanganligi.	8	4	2	2			1
16	Vakuumdagi elektrostatik maydon uchun Gauss teoremasi. Yakkalangan o'tkazgichning elektr sig'imi.	8	4	2	2			1
17	O'zgarmas elektr toki.	8	4	2				
18	Galvanik element mavjud bo'lgan zanjir uchun Om qonuni. Kirxgof qoidalari.	6	2	2				
	<b>I-Semestr</b>	<b>90</b>	<b>72</b>	<b>36</b>	<b>18</b>	<b>18</b>		<b>18</b>
19	Magnit maydoni.	8	6	2	2	4		2
20	Vakuumda magnitostatikaning asosiy tenglamalari.	10	8	2	2	4		2
21	Elektromagnit induksiya.	6	2	2				4
22	Elektr tebranishlar.	6	4	2	2			2
23	Elektromagnit to'lqinlar. Maksvell tenglamalari tizimining integral va differentsial ko'rinishi.	4	2	2		2		2
24	Geometrik optikaning asosiy qonunlari.	10	6	2	2	2		4
25	Yorug'likning interferensiyasi.	10	6	2	2			4
26	Yorug'lik difraksiyasi.	6	4	2	2	4		2
27	Yorug'likning muxit bilan o'zaro ta'siri.	8	4	2	2			4

28	Yorug'likning qutblanishi.	10	8	2	2			2
29	Issiqlik nurlanishi. Nurlanishning kvant tabiati	6	2	2				4
30	Fotoeffekt va uning qonunlari	4	2	2				2
31	Kvant nazariyasining eksperimental asoslanishi.	4	2	2				2
32	Qattiq jism fizikasi elementlari.	6	2	2				4
33	O'tkazgichlar va dielektrlarni zonalar nazariyasi asosidatushin trish.	6	2	2				4
34	Atom yadrosining tuzilishi va xossalari.	10	8	2	2	2		2
35	Radioaktivlik hodisasi.	4	2	2				2
36	Olamning paydo bo'lishi va evolyusiyasi.	4	2	2				2
	<b>II-Semestr</b>	<b>122</b>	<b>72</b>	<b>36</b>	<b>18</b>	<b>18</b>		<b>50</b>
	<b>Umumiy</b>	<b>244</b>	<b>144</b>	<b>72</b>	<b>18</b>	<b>54</b>		<b>100</b>

**2. Asosiy nazariy qism**  
**2.1. Ma'ruza mashg'ulotlari.**

**1-MODUL.**

**I-semestr (36 soat)**

**1-modul. Mexanikaning fizik asoslari.**

• **1.mavzu. Fizika faniga kirish.** Fizika fanining texnika va boshqa tabiiy fanlar bilan aloqasi va bu fanlar rivojidadagi ahamiyati. Texnika va texnologiya rivojlanishining

fizika fani rivojiga ta'siri. Fizika va matematika fanlari aloqadorligi. Mexanika haqida umumiy ma'lumot. Koordinatalar tizimi. Fazo va geometriya. Vektor kattaliklarni ularning koordinatapari orqali ifodalash. Koordinatalar va vektorlarning proeksiyalarini almashtirish. Fizik masalalarga tatbiq etilishda hosila va integralning ma'nosi haqida. Kinematika elementlari. Fizik modellar: moddiy nuqta (zarra yoki korpuskulyar), moddiy nuqtalar tizimi, absolyut qattiq jism, yaxlit muhit.

• **2.mavzu. Fizika fanining predmeti va uslublari. Kinematikaning elementlari va fizik asoslari.** Moddiy nuqta, sanoq sistemasi, radius-vektor va traektoriya tushinchalari. Hosila va integralning mazmuni va ularning fizika masalariga tadbiqu. Tezlik, tezlanish. Moddiy nuqtaning to'g'ri chiziqli harakati. Moddiy nuqtaning aylanabo'ylab harakati. Burchakli tezlik va tezlanish vektorlari. Egri chiziqli harakatda tezlik va tezlanish.

• **3.mavzu. Moddiy nuqta dinamikasi.** Dinamikaning asosiy vazifasi. N'yutonning birinchi qonuni. Inersial sanoq sistemasi. Massa va kuch tushunchasi. N'yutonning ikkinchi qonuni. Ilgarlanma harakat dinamikasining asosiy tenglamasi. N'yutonning uchinchi qonuni. Noinersial sanoq tizimlari. Inersiya kuchlari.

**4.mavzu. Tabiatdagi kuchlar va ularning xususiyatlari.** Fizik kattaliklarning o'lchov birliklari va o'lchamlari. Mexanikada saqlanadigan kattaliklar. Impul's. Impul'sning saqlanish qonuni. Tortishish kuchlari va og'irlik. Ishqalanish kuchlari. Elastiklik kuchlari. Qurilish matreallarining mustahkamligi haqida tushincha.

**5.mavzu. Mexanikada saqlanish qonunlari.** Ish va quvvat. konservativ va nokonservativ kuchlar kinetik va potensial energiya. Mexanik energiyaning saqlanish qonuni.

**6.mavzu. Saqlanish qonunlarini absalyut elastik va noelastik to'qnashuvlarga tadbiq etish.**

Impuls momenti va kuch momenti. Impuls momentining saqlanish qonuni. Markaziy kuchlar maydonidagi harakat.

**7.mavzu. Qattiq jism mexanikasi.** Qattiq jism inersiya markazining harakati. Qattiq jismning aylanma harakati. Aylanma harakat dinamikasining asosiy tenglamasi.

Aylanma harakat dinamikasining asosiy tenglamasi. Jismlarning qo'zg'almas o'qqa nisbatan inersiya momenti. Bazi jismlarning inersiya momenti. Shteyner teoremasi. Qo'zg'almas o'q atrofida aylanayotgan jismning kinetik energiyasi.

**8.mavzu. Mexanik tebranishlar.** Tebranishlar haqida umumiy ma'lumotlar. Garmonik tebranishlar va tebranma harakat tenglamasi. Tebranma harakat qilayotgan jismning energiyasi. Matematik mayatnik va fizik mayatnik. Garmonik tebranishlarni grafik usulda tasvirlash. Tebranishlarni qo'shish

**9.mavzu. Mexanik to'lqinlar.** Yassi va sferik to'lqinlar tenglamalari. To'lqinlarning interferensiyasi va difraksiyasi. Turg'un to'lqinlar. Tovush to'lqinlari. Ultra tovush.

**10.mavzu. Yaxlit muhit mexanikasining elementlari.** Suyuqlik va gazlarning xosalari. Ideal suyuqliklarning statsional oqimi. Bernulli tenglamasi. Real suyuqliklarning harakati. Yopishqoqlik koeffisienti. Stoks formulasi.



Galileyning nisbiylik prinsipi va almashtirishlari. Fizik kattaliklarning almashtirishlarga nisbatan invariantligi. Eynshteynning nisbiylik nazariyasi to'g'risida tushuncha. Lorens almashtirishlari. Uzunlik va vaqt oralig'ining nisbiyligi. Tezliklarni qo'shishning relyativistik qonuni. Massaning tezlikgabog'liqligi. Relyativistik impul's va relyativistik dinamikaning asosiy tenglamasi. Relyativistik mexanikada massa, impul's va energiya munosabatlari. Mexanika qonunlarning klassik mexanika qonunlariga o'tish chegarasi. Umumiy nisbiylik nazariyasining asosiy tasavvurlari.

## **2-modul. Statistik fizika asoslari va termodinamika.**

**11.mavzu. Makroskopik holatlar.** Issiqlik harakati. Makroskopik parametrlar. Intensiv va ekstensiv parametrlar. Gaz bosimining molyulyar-kinetik nazaraya asosida tushunilishi. Ideal gazning holat tenglamasi. Molekula ilgarilanma harakatining o'rtacha kinetik energiyasi va harorati. Erkinlik darajasi. Ideal gazning ichki energiyasi.

**12.mavzu. Statistik taqsimotlar.** Tashqi kuchlar maydonidagi ideal gaz molekularining hajmi bo'yicha taqsimlanishi. Barometrik formula. Bolsmantaqsimoti. Gaz molekularining tezligining absolyut qiymatlari bo'yicha taqsimoti.

**13.mavzu. Termodinamika asoslari.** Qaytar va qaytmaz issiqlik jarayonlari. Gaz hajmining o'zgarishida bajarilgan ish. Termodinamikaning birinchi qonuni. Ideal gazning issiqlik sig'imi. Termodinamikaning ikkinchi qonuni. Kano sikli, issiqlik mashinalarining foydali ish ko'ffisienti.

**14.mavzu. Real gazlar ko'chish hodisalari.** Molekula erkin yugurish yo'lining o'rtacha uzunligi. Ko'chish hodisalari va ularni ifodalovchi umumiy tenglama real gazlar. Van-derVaals izotermalari. Metastabil holatlar. Uchlangan nuqta.

## **3-modul. Elektr**

**15.mavzu. Kulon qonuni. Elektr maydon kuchlanganligi.** Elektrostatika. Elektr zaryadi. Zaryadning diskretligi. Elektr zaryadining saqlanish qonuni. Kulon qonuni. Elektrostatik maydon kuchlanganligi. Nuqtaviy zaryad maydonining kuchlanganligi. Superpozitsiya prinsipi. Vakuumdagi elektrostatik maydon uchun Gauss teoremasi va uning sodda elektr maydonlarini hisoblashda qo'llanilishi. Elektrostatik maydon kuchlarining bajargan ishi.

**16.mavzu. Vakuumdagi elektrostatik maydon uchun Gauss teoremasi.**

**Yakkalangan o'tkazgichning elektr sig'imi.** Elektrostatik maydon potentsiali. Nuqtaviy zaryad va zaryad tizimi maydonlarining potentsiali. Elektrostatik maydon kuchlanganligi bilan potentsiali orasidagi bog'lanish. Elektr dipoli va uning maydoni. Elektr sig'imi. Kondensatorlar

**17.mavzu. O'zgarmas elektr toki.** O'tkazgich va izolyatorlar. Elektr toki. Tok kuchi. Elektr tokining mavjud bo'lish sharti. Tashqi kuchlar. Galvanik element. EYuK. Om qonuni. O'tkazgichlar.

**18.mavzu. Galvanik element mavjut bo'lgan zanjir uchun Om qonuni.** Krixgof qoidalari. Vakuumba elektr toki. Termoelektron emissiya. Gazlarda elektr toki.

## **II-semestr (36 soat)** **4-modul. Magnetizm**

**19.mavzu. Magnit maydoni.** Magnit maydoni. Magnit maydon induksiyasining vektori. Amper qonuni. Tokli konturning magnit momenti. Bio-Savar- Laplas qonuni. Superpozitsiy prinsipi.

**20.mavzu. Vakuumba magnitostatikaning asosiy tenglamalari.** Lores kuchi. Bir jinsli magnit maydonda zaryadlangan zarraning harakati. Harakatlanayotgan zaryadlangan zarralarning elektr va magnit maydonlariga og'ishi.

**21.mavzu. Elektromagnit induksiya.** Elektromagnit induksiya hodisasi. Lens qoidasi. Induksiya EYuK. Garmonik tarzda o'zgarib turuvchi EYuKni hosil qilish. O'z induksiya. Induktivlik. O'zaro- induksiya hodisasi.

**22.mavzu Elektr tebranishlar.** Aktiv qarshiliksiz konturda erkin tebranishlar. So'nuvchan erkin tebranishlar. So'nish koeffisienti, so'nishning logarifimik dekrementi. Maksvelning integral ko'rinishdagi tenglamalari. Maksvel nazariyasining umumiy xarakteristikasi.

**23.mavzu. Elektromagnit to'lqinlar. Maksvell tenglamalari tizimining integral va differentsial ko'rinishi.**

Maksvelning ikkinchi tenglamasi. Elektromagnit to'lqin tarqalish tezligi. Energiya zichligi. Elektromagnit to'lqinlar. Elektromagnit to'lqin xususiyatlari. Elektromagnit to'lqin energiyasi.

## **5-modul. Optika**

**24.mavzu. Geometrik optikaning asosiy qonunlari.** Optikaning asosiy qonunlari. Fotometrik tushinchalar va birliklar. Linzalar. Optik asboblari.

**25.mavzu. Yorug'likning interferensiyasi.** Kogerentmanbalar. Yorug'lik to'lqinlarining interferensiyasi. Yorug'likning maksimum va minimum intensivligini qo'zg'atilish shartlari. Qalinligi o'zgarimas va o'zgaruvchan pardalarda kuzatiladigan interferensiya. Interferensiya hadisalarining qo'llanilishi. Interferometrlar.

**26.mavzu. Yorug'lik difraksiyasi.** Gyuygens-Frenel' prinsipi. Frenel' zonalar usuli. Disk va doiraviy tirqishdan hosil bo'ladigan Frenel' difraksiyasi.

**27.mavzu. Yorug'likning muxit bilan o'zaro ta'siri.** Difraksion panjara va uning ajrata olish qobiliyati. Rentgen nurlari difraksiyasi. Golografiya haqida ma'lumot.

**28.mavzu. Yorug'likning qutblanishi.** Yorug'lik to'lqinlarining muhit bilan o'zaro ta'sirlashishi. Yorug'likning moddada tarqalishi. Yorug'lik dispersiyasi. Normal va anomol dispersiya. Yorug'lik dispersiyasining klassik elektron nazariyasi. Spektral analiz xakida tushuncha. Yorug'likning yutilishi. Yutilish spektri. Yorug'likning qutublanishi.

## **6-modul. Kvant fizikasi.**

**29.mavzu. Issiqlik nurlanishi. Nurlanishning kvant tabiati.** Absolyut qora jism. Issiqlikdan nurlanish hodisasi. Kirxgof qonuni. Yorug'likning kvant nazariyasi. Plank formulasi. Pirometriya. Quyosh energiyasi va undan qurilishning turli sohalarida foydalanish muamolari.

**30.mavzu. Fotoeffekt va uning qonunlari.** Yorug'lik kvantining energiyasi, impulsi va massasi. Fotoeffekt. Fotoefekt qonunlari. Eenshteyin nazariyasi Fotoefektning qizil chegarasi. Fotoelementlar.

**31.mavzu. Kvant nazariyasining eksperimental asoslanishi.**

Vodorod atomining nurlanish spektridagi qonuniyatlari. Bal'merning umumlashgan formulasi. N. Bor postulatlari. Vodorod atomining Bor nazariyasi. Frank - Gers tajribasi. Kvant mexanikasining elementlari. De-Broyl gipotezasi. Elektronlar difraksiyasi. Geyzenbergning noaniqlik munosabatlari. Shredingerning vaqtga bog'liq va bog'liq bo'lmagan tenglamalari. To'lqin funksiyasi va uning statistik ma'nosi. Energetik sathlar. Kvant sonlari. Pauli prinsipi. lazerlar.

## **7-modul. Qattik jism fizikasi.**

**32.mavzu. Qattiq jism fizikasi elementlari.** Kristallarning tuzilishi haqida ma'lumot. Elektr o'tkazuvchalikning zonalar nazariyasi. Yarim o'tkazgichlarning xususiy va aramashmali o'tkazuvchaligi.

**33.mavzu. O'tkazgichlar va dielektriklarni zonalar nazariyasi asosidatushin trish.** Zonalar asosida o'tkazgichlarni dielektriklarni va yarim o'tkazgichlarni tushuntrish. Suyuq kristallar va ularning turlari. Suyuq kristallarning elektr va magnit maydonlaridagi xossalari.

## **8-modul. Atom yadrosi fizikasi.**

**34.mavzu. Atom yadrosining tuzilishi va xossalari.** Yadro kuchlari. Massa deffekti va yadro bog'lanish energiyasi. Yadroning fenomenologik tomchi va qobiq modellari. Messbauer effekti va uning qo'llanilishi.

**35.mavzu. Radioaktivlik hodisasi.** Radiktivlikning yemirilish qonuniyatlari.

Yarim emirilish davri. Yadro reaksiyalari. Yadrolarni bo'linish reaksiyalari. Zanjir reaksiya. Yadro reaktorlari. Yadro energetikasi muammolari. Termoyadroviy reaksiyalar. Boshqariladigan termoyadro reaksiyalari muammosi. Elementar zarrachalar xossalari va klassifikasiyasi. Koinot nurlari.

## **9-modul. Olamning hozirgi zamon fizik tasavvuri.**

**36.mavzu. Olamning paydo bo'lishi va evolyusiyasi.** Modda va maydon. Moddalarning atom molekulyar tuzilishi. Atomyadrosi. Elementar zarralar. Tortishish

kuchlari, elektromagnit kuchlar, kuchsiz va kuchli o'zaro ta'sir kuchlari. Materiyaning yagona nazariyalari haqida.

## **2.2. AMALIY MASHG'ULOTLAR BO'YICHA KO'RSATMA VA TAVSIYALAR**

Amaliy mashg'ulotlarini o'tkazishda quyidagi didaktik tamoyillarga amal qilinadi:

amaliy mashg'ulotlarining maqsadini aniq belgilab olish;

O'qituvchining innovasion pedagogik faoliyati bo'yicha bilimlarni chuqurlashtirish imkoniyatlariga talabalarda qiziqish uyg'otish;

talabada natijani mustaqil ravishda qo'lga kiritish imkoniyatini ta'minlash; talabani nazariy-metodik jihatdan tayyorlash;

amaliy mashg'ulotlari nafaqat aniq mavzu bo'yicha bilimlarni yakunlash, balki talabalarni tarbiyalash manbai hamdir.

### **Amaliy mashg'ulotlarning ro'yxati**

#### **1. Kinematika**

Moddiy nuqta, harakat traektoriyasi, tezlik, tezlanishlarga oid masalalarni echish usullarini o'rganadi. Buning natijasida  $x = At + Bt^2$ , ( $\varphi = A + Bt + Ct^2$  kabi formulalarni qo'llash ko'nikmasiga erishadi.

#### **2. Dinamika**

Nyuton qonunlarining tadbqiqiga oid, ish, energiya va ularning o'zaro almashuviga oid, shuningdek impul's va uning saqlanishiga bag'ishlangan masalalar ko'rib chiqiladi.

#### **3. Qattiq jismlarning aylanma harakati**

Qattiq jismning aylanma harakati va kuch momenti, inersiya momenta kabi fizik kattaliklar vositasida echiluvchi masalalar, hamda impul's momenti va uning saqlanish qonuniga oid masalalar o'rganiladi. **Qattiq jism mexanikasi** Qattiq jismlar deformatsiyasi va kuchlanishlar. Bir jinsli va bir jinsli bo'lmagan deformatsiya. Elastik va qoldiq (plastik) deformatsiya. Bir o'qli siqilish va cho'zilish deformatsiyasi

#### **4. Mexanikada nisbiylik nazariyasi.**

A.Eynshteynning nisbiylik nazariyasi to'g'risida tushuncha. Lorens almashtirishlari. Impuls va energiyaning almashtirilishi. Uzunlik va vaqt oralig'ining nisbiyligi. Tezliklarni qo'shishning relyativistik qonuniga oid masalalar o'rganiladi.

#### **5. Suyuqliklar mexanikasi**

Suyuqlik va gazlarning umumiy xossalari. Suyuqlik harakatini kinematik tavsiflash. Suyuqlikning muvozanatlik va harakat tenglamasi. Ideal va yopishqoq suyuqlik. Siqilmaydigan suyuqlik gidrostatikasi. Ideal suyuqlikning statsionar harakati. Bernulli tenglamasi. **Yopishqoq suyuqlik gidrodinamikasi.** Yopishqoqlik koeffitsiyenti. Suyuqlikning quvur ichidagi oqimi. Puazeyl formulasi.

**6. Mexanik tebranishlar** Garmonik tebranma harakat va ularning tenglamalari yordamida tebranma harakatda amplituda, chastota, tezlik va tezlanish, tebranuvchi sistemaning energiyasini aniqlashga oid masalalar echilishi o'rganiladi. Mexanik to'lqinlar Garmonik tebranma harakat va ularning tenglamalari yordamida tebranma harakatda amplituda, chastota, tezlik va tezlanish, tebranuvchi sistemaning energiyasini

aniqlashga oid masalalar echilishi o'rganiladi.

### **7. Molekulyar fizika.**

Bosim, xajm, temperatura kabi parametrlarni o'ziga qamrab olgan Mendeleev - Klayperon tenglamasi, gaz molekulasi tezligiga oid, shunidek gazlarning issiqlik sig'imlariga bag'ishlangan masalalar beriladi. Termodinamika qonunlariga bag'ishlangan ichki energiya, issiqlik mashinasining F.I.K. kabi kattaliklarni aniqlashga oid masalalar echilishi o'rganiladi. **Real gazlar, suyuqliklar va qattiq jismlar.** Real gazlar molekulari orasidagi kuchlar va potensial energiya. Van-der-Vaals tenglamasi. Real gazning ichki energiyasi. Gazlarning suyuqlikka aylanishi. Joul-Tomson effekti. Suyuqliklarning sirt tarangligi. Kapillyar hodisalar.

### **8. Elektrostatika. Kulon qonuni.**

Elektrostatik maydon to'g'risidagi tushunchalarni yanada chuqurlashtirish uchun masalalar echish usullari beriladi. Kulon qonunini qo'llashga hamda elektr maydonining kuchlanganligini aniqlashga oid masalalar beriladi. **Elektr maydon kuchlanganligi.Potensial.**Elektrostatik maydon to'g'risidagi tushunchalarni yanada chuqurlashtirish uchun masalalar echish usullari beriladi. Kulon qonunini qo'llashga hamda elektr maydonining kuchlanganligini aniqlashga oid masalalar beriladi. **Elektrostatik maydondagi o'tkazgichlar.**Zaryadning zichligi. Tashqi elektr maydonidagi o'tkazgich. Dielektriklarning turlari. Qutblanish zaryadlari. Bir jinsli bo'lmagan qutblanish. Dielektriklarning qutblanishi. Elektr siljish vektori. Dielektrik singdiruvchanlik.**Elektr maydon energiyasi.** Zaryadlangan kondensator energiyasi. Elektrostatik maydon energiyasi zichligi. Elektrostatik maydondagi dielektrik.

### **9. Gauss teoremasi. Elektr sig'im.Kondensatorlar. Zaryadlangan**

**o'tkazgich energiyasi.** Gauss teoremasi vositasida turli xil zaryadlangan jismlar atrofidagi elektr maydonni aniqlash, hamda elektr sig'imi, kondensatorlarga oid masalalar ushbu bo'limda keltirilgan.O'zgarmas tokning asosiy qonunlari. Zanjirning bir qismi va to'liq zanjir uchun Om qonuni. Kirxgof qoidalari. Tokning ishi va quvvati. Joul' - Lens qonuni.O'zgarmas tok qonunlari jumladan tok kuchi, tok zichligi, elektr yurituvchi kuch kabilarni aniqlashga doir masalalar echish ko'nikmasi hosil qilinadi. Elektr toki ta'sirini belgilovchi tok ishi, quvvatni hisoblash, shuningdek turli zanjirlar uchun Kirxgof qonunlarini qo'llashga oid masalalar echilishi o'rganiladi.

### **10. Magnit maydoni. Bio-Savar-Laplas qonuni va uning turli o'tkazgichlarga tatbiqi.**

Turli shakldagi , ya'ni tug'ri, aylanma va tokli solenoidlar atrofida yuzaga keladigan magnit maydon induksiyasi yoki kuchlanganligi qiymatini hisoblashga oid masalalar ishlanishi ko'rib chiqiladi. **Tokli o'tkazgich magnit maydonida.**

Magnit maydon bilan tokli o'tkazgich orasidagi o'zaro bog'lanishni aniqlash, shuningdek magnit maydonda harakat qiluvchi zaryadli zarralarga ta'sir etuvchi kuchlar qiymatini hisoblashga bag'ishlangan masalalar o'rin olgan. **Amper kuchi. Lorens kuchi.** Solenoid va toroidning magnit maydoni. Lorens kuchi. Amper kuchi. Zaryadlangan

zarralarning elektr va magnit maydonidagi harakati. Xoll effekti. Tezlatgichlar. **Magnit oqimi.** Magnit oqimi. Vakuumdagi magnit maydon uchun Gauss teoremasi. Tokli konturning magnit maydonidagi potensial energiyasi.

### **11. Elektromagnit induksiya.**

Faradey tajribalari. Faradey qonunlari. Elektromagnit induksiya qonuni. Lens qoidasi. O'zinduksiya hodisasi. Elektromagnit induksiya xodisasi, induktivlik va o'zinduksiyaga doir masalalarni ishlash to'g'risida ko'nikma hosil qilinadi. Induktivlik. O'zaro induksiya. Transformatorlar. Magnit maydon energiyasi. Magnit maydon energiyasi zichligi. **Moddadagi magnit maydoni.** Molekulyar toklar. Magnitlanish vektori. Modda uchun magnitostatikaning asosiy tenglamalari. Magnetiklarning turlari. Diamagnetiklar. Paramagnetiklar. Ferromagnetiklar va ularning xossalari.

### **12. Elektromagnit tebranish va to'liqlar.**

Elektromagnit to'liqlarning tarqalish tezligi. Elektromagnit to'liq tenglamasi. Elektromagnit maydon energiya zichligi va energiya oqimining zichligi. **O'zgaruvchan tok.** O'zgaruvchan tok zanjirida qarshilik, sig'im va induktivlik. Impedans. Tok generatorlari. Majburiy tebranish fazasi. Tebranishlarni modulyatsiyalash. Majburiy elektr tebranish tenglamasi. Kuchlanish rezonansi. Tok rezonansi. O'zgaruvchan tok quvvati.

**13. Geometrik optika. Yorug'likning qutblanishi. Nurlarning ikkilanib sinish hodisasi.** Yorug'likni sinishi va qaytish qonunlariga, shuningdek turli usullarda hosil bo'ladigan yorug'lik nnterferensiyasiga oid masalalar ko'rib chiqiladi. Yorug'lik interferensiyasi. Monoxromatik to'liqlar interferensiyasi. Kvazimonoxromatik to'liqlar va ularni interferensiyasi. Fazo va vaqt bo'yicha kogerentlik. Yorug'lik interferensiyasini kuzatish usullari. Interferometrlar.

Tabiiy yorug'likdan qutblangan yorug'lik hosil - qilish va qutblangan yorug'likning intensivligi kabi kattaliklarni aniqlashga doir masalalar echish ko'nikmalari hosil qilinadi. Yorug'likning ikki muhit chegarasidan qaytishda va sinishda qutblanishi. Bryuster qonuni.

**14. Yorug'lik difraksiyasi.** Yorug'lik difraksiyasi mavzusi masalalarda yorug'lik to'liq uzunligi, spektr tartibi, panjara doimiysi kabi qiymatlarni aniqlashni o'rganiladi. **Yorug'lik dispersiyasi.** Golografiya haqida tushuncha. Dielektrik singdiruvchanlik dispersiyasi. Yorug'likning yutilishi. Shaffof muhitlar. Normal va anomal dispersiya. Yorug'lik dispersiyasining klassik elektron nazariyasi.

### **15. Issiqlik nurlanish qonunlari.**

Qizdirilgan jismlarning temperaturasi, energetik yorqinligi, nurlanish quvvati, spektral zichligi kabi kattaliklarni aniqlashga doir masalalar echilishi o'rganiladi.

**16. Yorug'likning kvant tabiati** Yorug'likning kvant xossalari ya'ni Plank formulasi yordamida fotonlarning energiyasi, chastotasini va massasini topishga doir masalalar ko'rib chiqiladi. elektronlarning tezligi, energiyasi, chastotasi va chiqish ishiga oid masalalar echilishi o'rganiladi. Shuningdek Bor nazariyasiga asoslangan masalalar ko'rib chiqiladi.

**17. Bor nazariyasi Fotoeffekt qonunlari** Bor nazariyasiga asoslangan masalalar ko'rib chiqiladi. Bor nazariyasi Fotoeffekt qonunlari asosida hamda Eynshteyn formulasi

yordamida turli metallar uchun fotoeffektning qizil chegarasi, elektronlarning tezligi, energiyasi, chastotasi va chiqish ishiga oid masalalar echilishi o'rganiladi. Shuningdek Bor nazariyasiga asoslangan masalalar ko'rib chiqiladi.

**18. Atom yadrolarining bog'lanish energiyasi** Radioaktivlik xodisasi, radioaktiv moddalarning emirilish, yarim emirilish davri, yadroviy reaksiyalar hamda bog'lanish energiyasini tahlil etishga bag'ishlangan masalalarni echishda ko'nikma hosil qilinadi. Ekstremal sharoitdagi modda.

### **2.3. LABORATORIYA ISHLARI BO'YICHA KO'RSATMA VA TAVSIYALAR**

Kafedra professor - o'qituvchilari tomonidan laboratoriya ishlarini bajarish buyicha tavsiyalar va uslubiy qo'llanmalar ishlab chiqiladi. Laboratoriya ishlari fizikaviy stendlardan va virtual laboratoriya ishlaridan iborat.

Laboratoriya mashg'ulotlarida tajriba asosida fizik qonunlarni o'rganiladi. Laboratoriya ishlarining minimal namunalari sifatida quyidagilar tavsiya etiladi:

#### **Laboratoriya ishlarining ro'yxati:**

##### **1. Matematik mayatnik yordamida erkin tushish tezlanishini aniqlash**

Berilgan balandlikdan jism erkin tushish vaqtini bilgan holda erkin tushish tezlanishini aniqlash

##### **2. Giroskop chayqalishini o'rganish.**

Ma'lum geometrik shaklga ega bo'lgan qattiq jismning inersiya momentini Oberbek taklif etgan usul bilan aniqlashi o'rganiladi va aylanma harakat qonunlari bilan tanishiladi.

##### **3. Suyuqliklarning hajmiy kengayish ko'effitsiyentini aniqlash**

Dilatometrning hajmini ( $V_0$ ) aniqlash. Suvning va etalon (etil spirti)ning hajmiy kengayish ko'effitsientlarini ( $\gamma$ ) aniqlash; Suv bilan etanolning hajmiy kengayish ko'effitsientlarini taqqoslash.

##### **4. Qattiq jismning chiziqli kengayish ko'effitsiyentini temperaturaga bo'g'liqligini o'rganish.**

Latun, po'lat va shishaning chiziqli kengayish ko'effitsientining temperaturaga bog'liqligini o'lchash. Latun, po'lat va shishaning chiziqli kengayish ko'effitsientini aniqlash.

##### **5. Kritik nuqtada suyuqlik-gaz fazaviy o'tishini kuzatish.**

Kritik nuqtadan (kritik temperaturadan) yuqori qizdirganda suyuqlik –gaz fazasi chegarasining yo'qolishini kuzatish.

Kritik temperaturadan past, bo'lgan temperaturada suyuqlik-gaz fazaviy chegarasining shakillanishini kuzatish

##### **6. Vakuimli diodning volt-amper xarakteristikasini o'rganish.**

Vakuimli diodning volt-amper xarakteristikasini katodni qizdirish kuchlanishining uch qiymatida o'lchash. Xajmiy manfiy zaryadning anod maydoniga qarshi ta'sir sohasini va VAX ining to'yinish sohasini aniqlash.

Lengmyur-Chayld qonunini tekshirish.

## **7. Taqasimon magnit maydonida tokli o'tkazgichga ta'sir etuvchi kuchni o'lchash**

Taqasimon magnit maydonida tokli o'tkazgichga ta'sir etuvchi kuchni tok kuchining funksiyasi sifatida o'lchash.

## **8. Erkin elektromagnit tebranishlar**

Elektronlarning magnit maydonida aylanma orbita bo'ylab og'ishini o'rganish. Magnit maydoni  $B$  ni doimiy  $r$  radiusli orbitadagi elektronlarni tezlashtiruvchi potensial  $U$  ning funksiyasi sifatida aniqlash.

Elektronning solishtirma zaryadini aniqlash.

## **9. O'zaksiz solenoidning induktivligini o'lchash**

Magnit o'zakka ega bo'lmagan induktiv g'altakning magnit maydonini undan o'tayotgan  $I$  tok kuchining funksiyasi sifatida o'lchash.

## **10. Linza fokus masofasi va uning sferik aberatsiyasini aniqlash**

Talabalarga linza fokus masofasi va uning sferik aberatsiya haqidagi tushinchalarni shakllantirish.

## **11. Difraksion panjara yordamida yorug'likning to'lqin uzunligini aniqlash.**

## **12. Yorug'lik qutublanishida chorak va yarim to'lqin plastinkaning roli.**

Yorug'lik intensivligini analizator va polizatorlardan o'tishi vaqtida Malyus qonuni o'rganish va bu jarayonda qutublantiruvchi qurilmalar orasida chorak hamda yarim to'lqin plastiklari joylashtirilganda elektromagnit to'lqin intensivligiga ta'sirini o'rganish ko'nikmalarini shakllantirish.

## **13. Plank doimiysini aniqlash.**

Tashqi fotoeffekt hodisasidan foydalanib Plank doimiysini aniqlash.

## **14. Fotoeffekt hodisasini o'rganish.**

Fotoelementning voltamper xarakteristikasini olish va fotoeffekt qonuniyatlarini o'rganish.

## **15. Elektronning solishtirma zaryadini aniqlash**

Elektronlarning magnit maydonida aylanma orbita bo'ylab og'ishini o'rganish.

Magnit maydoni  $B$  ni doimiy  $r$  radiusli orbitadagi elektronlarni tezlashtiruvchi potensial  $U$  ning funksiyasi sifatida aniqlash.

Elektronning solishtirma zaryadini aniqlash.

Virtual laboratoriya ishlari.

## **I. Mexanika, molekulyar fizika va termodinamika.**

1.1. Mexanik tebranishlarni o'rganish.

1.2. Molekulyar fizika. Gaz qonunlarini o'rganish.

1.3. Termodinamik. Moddaning issiqlik sig'imini aniqlash.

1.4. Maksvell taqsimoti o'rganish.

## **II. Elektr va magnetizm. Optika.**

2.1. Zaryadlangan zarraning elektr maydonida harakati.

2.2. Nuqtaviy zaryad elektr maydoning potentsiallar taqsimotini o'rganish.



- 2.3.O'zgarimas tok qonunlari.
- 2.4.Gaz razryadining vol't-amper xarakteristikasini o'rganish.
- 2.5.Magnit maydonida zaryadli zarralar harakatini o'rganish.
- 2.6.Elektromagnit induksiya hodisasini o'rganish.
- 2.7.O'zgaruvchan tok zanjirida rezonans hodisalarini o'rganish.
- 2.8.Difraksiya va interferensiya o'odisalarini o'rganish.
- 2.9.Difraksion panjara yordamida yorug'lik spektrini o'rganish.

### **III. Kvant optikasi. Atom fizikasi.**

- 3.1.Frank-Gers tajribasini o'rganish.
- 3.2.Vodorod atomining nurlanish spektrini o'rganish.

#### **2.4. MUSTAQIL ISHLAR BO'YICHA KO'RSATMA VA TASVIYALAR**

Mustakil ta'limni tashkil etishda muayyan fanning xususiyatlarini hisobga olgan holda quyidagi shakllardan foydalanish tavsiya etiladi va joriy nazorat sifatida baholanadi:

1) mavzular buyicha konspekt (referat, takdimot) tayyorlash. Nazariy materialni puxta o'zlashtirishga yordam beruvchi bunday usul o'kuv materialiga diqqatni ko'proq jalb etishga yordam beradi. Talaba konspekti turli nazorat ishlariga tayyorgarlik ishlarini osonlashtiradi, vaqtni tejaydi;

